Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishla...

ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH VA YUQORI IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Muxammedov Tolibjon Tohir o'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti "Iqtisodiyot" yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Raxmonqulova Nafisa Olimjonovna
Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, modernizatsiya, institutsional islohot, kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi juda ko'p faktorlarga bog'liq bo'ladi. Bu faktorlar tomonidan qo'llanuvchi resurslardan samarali foydalanib, islohotlarni amalga oshirish va yangi innovatsiya va texnologiyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga imkon beradi. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, bir mamlakatning iqtisodiy faoliyatining iste'mol etuvchi resurslarni o'qitish, ulardan samarali foydalanish va yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni kengaytirish orqali olib boriladi. Ayni vaqtda, davlatning barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirish maqsadida "Yangi O'zbekiston" ning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi[54] va uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasi jamoatchilik muhokamasiga taqdim etildi. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Taraqqiyot strategiyasi) va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; - ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

[54] «Yangi O'zbekiston»ning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi

Published: 23.12.2024
Cite this article: Muxammedov Tolibjon Tohir o'g'li (2024). Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/991
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ta’kidlanishicha, O‘zbekiston 2030 yilga borib daromad darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilishi uchun milliy iqtisodiyotning turli jabhalarida o‘sish sur’atlari hozirgi darajadan ancha yuqori bo‘lishi kerak.

Xususan, 2026 yilgacha aholi o‘rtasida kambag‘allikni ikki baravar kamaytirish, shuningdek, 2030 yilga borib daromad darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilish ko‘zda tutilgan. Bunga erishish uchun Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlari hozirgi darajadan ancha yuqori bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu maqsadlarga ish o‘rinlarini yanada ko‘proq yaratish hamda fuqarolarning, jumladan, yoshlar, ayollar va nogironligi bor shaxslarning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish orqali erishish mumkin.

O‘zbekistonga yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi to‘rtta yo‘nalishda rivojlanish yordam berishi mumkin:

1) xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish;

2) davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish;

3) fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish;

4) ekologik barqaror kelajakni barpo etish.

Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish uchun:

- ta’lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali uning sifatini oshirish;
- maktabgacha ta’lim va oliy ta’lim muassasalariga kirish imkoniyatini yaxshilash;
- sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini va fuqarolar uchun undan foydalanish imkoniyatini oshirish;
- butun mamlakat bo‘ylab suv ta’minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- kambag‘allikni o‘lchash tizimini, unga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarini va ularning maqsadliligini takomillashtirish;
- aholi zaif qatlamlarining mehnat bozorida keng ishtirokini rag‘batlantiruvchi davlat siyosatini ishlab chiqish;
- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish va u bilan aholining muhtoj qatlamlarini qamrab olish kerak.

Davlat ko‘magi bilan mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun:

- davlatning tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi funksiyalaridan bozorni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan funksiyalariga o‘tkazib, uning rolini transformatsiya qilishni jadallashtirish;
- davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish;
- zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va turli hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- davlat funksiyalarini markazsizlashtirishni davom ettirish;
- davlat organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligini oshirish zarur.

Mamlakatning ekologik barqaror kelajagini barpo etish uchun:

- tabiiy resurslarni, jumladan, suv va yer resurslarini samaraliroq boshqarish;
- atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini yanada kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, shu jumladan energetika sohasini modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;
- tabiiy ofatlar xavfini boshqarish tizimini takomillashtirish lozim.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkilotlangan va samarali islohotlar, masalan, tartibsizliklarni bartaraf qilish, korporativ boshqaruv prinsiplarini joriy etish va

investitsiya muhitini yaxshilash kabi faktorlar milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Moliya sohasida islohotlar, soliq tizimini yaxshilash, soliq daromadini oshirish, moliya resurslaridan samarali foydalanish va kapitalni jalb etishga imkon beradi. Bu reformalar milliy iqtisodiyotni kuchaytirib boradi va investitsiya jalb qilishga imkon beradi. Yangi innovatsiya va texnologik rivojlanishlar milliy iqtisodiyotni yanada barqaror qilishda muhim ahamiyatga ega. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar orqali, ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilishi, mahsulot sifati oshirilishi va yangi sohasidagi bo‘sh ish o‘rinlarining yaratilishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va moliya resurslari jalb etish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularga moliyaviy yordamning yanada kengaytirilishi va kapital investitsiyalari uchun imkon yaratish orqali milliy iqtisodiyotni kuchaytirish mumkin.

Milliy iqtisodiyot - ijtimoiy iqtisodiyotning mavjudlik shakli; mamlakat, davlat qududida yashovchi millat (xalqlar)ning tarixan shakllangan yoki tubdan yangilanayotgan, o‘zgarayotgan va rivojlanayotgan mulkiy va boshqa ijtimoiyiqtisodiy munosabatlari, ular bilan shartlangan, mahalliy xususiyatlarga ham ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat sohalari, tarmoqlari, tashkilotlari, korxonalari, hududlari va mintaqalari sistemasi. Imkon darajasida tashqi bozor ta’siridan xoli bo‘lgan milliy xo‘jalik sistemasi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun sifatli ta'lim va kadrlarni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Sifatli kadrlar, innovatsiya va rivojlanish jarayonlarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydilar. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy sur'atlarni ta'minlashning ustuvor yo‘nalishlari infrastruktur rivojlanishi, sanoat sohasini rivojlantirish, agro sanoatni rivojlantish, innovatsion texnologiyalarni olib kelish yoki turizm sohasini rivojlantirish bo‘lishi mumkin. Infrastruktur, iqtisodiy faoliyatning asosiy qurilmalaridan biridir. Uy, o‘simliklar, transport tarmoqlari, kommunikatsiya vositalari va boshqa infrastruktur ob'ektlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko‘mak beradi. Xorijiy savdo mablag‘larining mamlakatga kirishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhimdir. Export qilinayotgan tovarlarning sifati va uning talablariga mos kelishuv milliy iqtisodiyotning barqarorlik darajasini oshiradi. Innovatsion texnologiya va soha boyicha yuqori malakali kadrlarning tayyorlanishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhimdir. Texnologik innovatsiya, yangi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi va yaratilayotgan xizmatlarning sifatini oshiradi.

Investitsiya jalb etish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan jarayonlardan biridir. Chet el investorlarining mamlakatga kiritgan mablag‘lar sanoat, infrastruktur, turizm va boshqa sohalarda ishlab chiqaruvchi korxonalar ochish va ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni izchil rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, sohada tarkibiy tub o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish zarurati tobora ortib borayotir. Bu jihatlar iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Ushbu sohalar yalpi ichki mahsulotni ko‘paytirish, aholi bandligini ta’minlash, farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishi bilan ahamiyatlidir. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko‘p jihatdan iqtisodiyot yo‘nalishlari hamda sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror

rivojlanishi uchun uning tarmoqlari rolini, ayniqsa, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga intiladi. Demak, biz yuqorida ko‘rib chiqqan va bildirilgan fikrlar hamda izlanishlar asosida bilishimiz mumkinki, aynan yuqorida ko‘rganimiz, “Harakatlar strategiyasi” va uning mantiqiy davomchisi bo‘lmish “taraqqiyot strategiyasi” ham boshqa sohalar singari milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yanada takomillashtirishga ham qaratilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy o‘sishga erishish, uning sur’atlarini barqaror va maqbul darajada bo‘lishini ta’minlash nafaqat O‘zbekiston balki jahonning barcha davlatlari uchun ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi mamlakatning kuch-qudratini va aholining farovonligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, barcha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar faqat bitta maqsadga– aholi farovonligini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va xalqimizni rozi qilishga yo‘naltirilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida prezident farmoni

2. Mirziyoyev Sh. M. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

3. Berkinov B.B., Asqarova M.T., Abduraximova S. O‘zbekistonni rivojlanish strategiyasi: o‘quv qo‘llanma. – T.: 2019

4. Албегова И.М., Емцов Р.Г., Холопов А.В. Государственная экономическая политика.-Москва МГУ.Изд.”Дело и сервис”, 2018

5. Mambetjanov Q.Q. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.:TDIU, 2015.

6. Norqulov D.T. “O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” fanining o‘quv-uslubiy majmuasi. 2018

7. Rashidov A., Ernafas o‘g‘li S. K. MAMLAKATIMIZDA ISHSIZLIK SABABLARINI O ‘RGANISH VA TAHLIL QILISH //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 284-288.

9. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. –2022. –T. 1. –No. 10. –C. 185-191.

10. Akramovich N. A. History, subject and objectof formation of" macroeconomics" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. –2022. –T. 10. –No. 1. –C. 209-210.

11. Nizametdinov A. A. Oliy ta’lim tizimida agrar sohaning ustuvorligi unda innovatsiyalarning qullanishi //international conferences. –2022. –T. 1. –No. 6. –C. 96-98.

12. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z. The Role Of The Private Sector In The Development Of Tourism //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. –2022. –T. 1. –No. 12. –C. 130-136.

13. Xolmuradovich X. B. et al. Business Ethics And Culture, Rules For Its Work //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. –2022. –T. 1. –No. 12. –C. 184-191.